SHE'RIY MATNLARDA AFFIKSATSIYA USULI ORQALI YUZAGA KELGAN FE'L NEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI.

Fayzullayeva Orzigul Umid qizi

orzigulfayzullayeva0gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada she'riy matnlarda qo'llangan fe'l turkumiga oid individual yasalmalar tahlilga olindi. So'z yasalish usullari tahlil etilib, fe'l turkumining affiksal usul bilan yasalishi ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: affiks, prefiks, so'z yasash, individual yasalma, struktur tahlil, semantika.

Аннотация:В данной статье проанализированы индивидуальные дериваты глагольной части речи, употреблённые в поэтических текстах. Рассмотрены способы словообразования и исследовано формирование глаголов с помощью аффиксального метода.

Ключевые слова: аффикс, префикс, словообразование, индивидуальный дериват, структурный анализ, семантика.

"Tilshunoslikda so'z yasash turli usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Affikslar yordamida, ya'ni so'z yasovchi qo'shimcha yordamida so'z yasash ko'pchilik tillar uchun asosiy vositadir. Affikslar so'z o'zagiga joylashish

nuqtayi nazaridan prefiks, postfiks, va infikslarga (bu usul arab tillariga xos)

ajraladi.

2. Ikki yoki undan ortiq so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali yangi so'z yasash.

3.Konversiya orqali so'z yasash"[1]**.**

Quyida affikslar yordamida yasalgan individual neologizmlarni tahlil

[1] Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshket :O'qituvchi, 1992. –B.110.

etamiz.

Men o‘zi kimman,
Tashlandiq quduq,
Yomg‘irlarning esidan chiqqan,
Baliqlari tashna, jon bergan,
Qamishlari o‘yib ***naylangan***,

Tashlandiq quduq…[2]

Ushbu yasalma ot+ lan (fe`l yasovchi) qolipida hosil bo‘lgan. –lan fe`l yasovchi affiksi eng faol fe`l yasovchi qo‘shimcha bo‘lgan –la hamda –n nisbat qo‘shimchasidan hosil bo‘lgan. Shu sababdan –la va –lan affikslari bir – biriga yaqin.[3] Ushbu affiks yasovchi asosdan anglashilgan narsa –predmetga o‘zini ega qilish (U bilan ta’minlash) ma’nosini bildiradi. Nay so‘zi forschadan olingan so‘z bo‘lib, uzun, ichi teshik narsa, ingichka turba. Nay shishadan yoki qamishdan yasaladi. Yuqoridagi parchadagi individual yasalmada ham tashlandiq, foydalanilmaydigan quduq arofida o‘sgan qamishlardan yasalgan nay haqida gap boradi. Farida Afruz o‘zligini, kimligini anglashga urinar ekan o‘zini ana shu kimsasiz, yomg‘irlarning ham yodidan chiqqan bir quduq singari ko‘radi o‘zini.

Yillar shunday o‘tar bizning yurakdan,

[2] Farida Afruz. Shamolda sham ko‘tarib. –Toshkent. 2010. –B. 26.
[3] Hojiyev A.O‘zbek tili so‘z yasalishi. –Toshkent. 1989. –B.80

Yillar ko‘nglimizga o‘rnashar bir-bir.

Biz unda yo‘lovchi – orzulanyotgan

Yangi yil – Yangi baxt, eng yangi taqdir!

Berilgan misralarda vaqtning o‘tishi, inson hayotining davriy davomiyligi va yangilikka bo‘lgan umid badiiy ifoda vositalari orqali tasvirlangan. “Yillar shunday o‘tar bizning yurakdan” misrasi metaforik xarakterga ega — vaqtning o‘tishi “yurakdan o‘tish” sifatida talqin qilinib, vaqt insonning ichki dunyosi bilan bog‘lanadi. “Yillar ko‘nglimizga o‘rnashar bir-bir” satrida yillar inson xotirasiga singib boradigan obraz sifatida tasvirlangan. Bu ham personifikatsiya — yilning odam singari “o‘rnashishi” orqali psixologik holat yaratiladi. “Biz unda yo‘lovchi” — insonning hayot yo‘lidan o‘tayotgan sayyohga o‘xshatilishi poetik falsafaning markaziy nuqtasini ifodalaydi. “Yangi yil – Yangi baxt, eng yangi taqdir!” misrasi parallelizm asosida qurilgan bo‘lib, yangi yilning yangi imkoniyatlar bilan bog‘lanishi kuchli emotsional ohang yaratadi. Ushbu misralarda qo‘llangan orzulanyotgan so‘zi individual yasalmaga misol bo‘la oladi. Orzu so‘ziga fe’l yasovchi –la qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan yasama fe’l orzu qilmoq so‘ziga sinonim bo‘la oladi. Biroq orzulanmoq so‘zi sinonimiga nisbatan badiiy matnda kuchli ta’sir kuchiga ega.

She’riy matnlarda affiksatsiya orqali yuzaga kelgan fe’l neologizmlarini o‘rganish tilning ijodiy imkoniyatlarini ochib beruvchi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Badiiy nutqda fe’l yasash jarayoni oddiy grammatik hodisa emas, balki shoirning poetik tafakkuri, obraz yaratish mahorati va til boyliklaridan o‘ziga xos foydalanishidan dalolat beradi. Affiksal usul yordamida yaratilgan neologizmlar she’riy matnga yangi semantik ranglar, emotsional-ekspressiv kuch va individual badiiy ohang bag‘ishlaydi. Ularning semantik tahlili esa har bir affiksning ma’no yukini, qo‘shimcha ma’no qatlamlarini va

matnning umumiy badiiy ta’sirini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, affiksatsiya natijasida hosil bo‘lgan fe’l neologizmlar tilda mavjud bo‘lmagan yangi dinamik holatlarni ifodalash, shoirning ichki kechinmalarini tasvirlash va poetik obrazlarni boyitishda muhim vositaga aylanadi. Bunday yasalmalar nafaqat shoirning individual uslubini yoritadi, balki tilning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari affiksatsiya jarayonining badiiy matnlardagi funksional-semantik ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –Toshket :O‘qituvchi, 1992. –B.110.
2.Farida Afruz. Shamolda sham ko‘tarib. –Toshkent. 2010. –B. 26.
3.Hojiyev A.O‘zbek tili so‘z yasalishi. –Toshkent. 1989. –B.80